

**Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlarning amaliyotga tatbig'i: tahlil va takliflar**

**Matqurbonova Sevvara Ikromjon qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim  
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

E-mail: [sevaramatqurbonova8@gmail.com](mailto:sevaramatqurbonova8@gmail.com)

Tel: +998-94 535-37-67

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda interfaol metodlarning amaliyotga tatbig'i hamda ularning ta'lim jarayonidagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni haqida tahlil qilinadi. Maqolada interfaol metodlarning ta'lim sifatini yaxshilash, o'quvchilarni faollashtirish va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdagi samaradorligi o'rganilgan. Shuningdek, maqolada turli interfaol metodlarning afzalliklari va kamchiliklari hamda ularni boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali qo'llash usullari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, ta'lim tizimi, ijodiy fikrlash, o'quvchi faolligi, ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, metodlar samaradorligi, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi, innovatsion ta'lim.

**Abstract:** This article analyzes the practical application of interactive methods in primary education and their role in the formation of students' knowledge and skills in the educational process. The article studies the effectiveness of interactive methods in improving the quality of education, activating students and developing their creative thinking skills. The article also examines the advantages and disadvantages of various interactive methods and methods for their effective use in the primary education process.

**Keywords:** Primary education, interactive methods, education system, creative thinking, student activity, educational technologies, pedagogical technologies, independent thinking, effectiveness of methods, teacher-student cooperation, innovative education.

**Аннотация:** В статье анализируется практическое применение интерактивных методов в начальном образовании и их роль в формировании знаний и умений учащихся в образовательном процессе. В статье рассматривается эффективность интерактивных методов в повышении качества образования, активизации учащихся и развитии их навыков творческого мышления. В статье также рассматриваются преимущества и недостатки различных интерактивных методов и пути их эффективного использования в процессе начального образования.

**Ключевые слова:** Начальное образование, интерактивные методы, система образования, творческое мышление, активность учащихся, образовательные технологии, педагогические технологии, самостоятельное мышление, эффективность методов, сотрудничество учителя и ученика, инновационное образование.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda ta'lim tizimini yanada takomillashtirish hamda rivojlangan davlatlarning ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ehtiyoji kundan-kunga ortib bormoqda. Bu borada mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan bir qancha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda ta'lim sohasining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish borasida ham bir qancha amaliy islohotlar olib borildi.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-6

Ayniqsa, bu borada maktab ta'lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz Prezidenti SHavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'lim tizimi haqida o'z fikrlarini quyidagicha ifodalagan: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"[1].

Maktab ta'lim tizimida o'quvchilarda mukammal bilim asoslarini shakllantirishning asosiy bo'g'ini boshlang'ich ta'lim hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim nafaqat o'qish, yozish, sanash, hisoblash, balki o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini - o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyatining egallab olinishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va axloqiy ko'nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi. Qolaversa, ta'lim jarayonida bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga, go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirish hamda ularga rioya qilishga o'rgatiladi.

Ta'limning bugungi asosiy vazifasi o'quvchilarni kun sayin rivojlanib borayotgan zamonaviy ta'lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko'rsata olish, turli sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iborat. Aynan shuning uchun ham o'quvchilarga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda 4 K moduli asosida ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tgan ko'rsatkichlarga erishish uchun darslarda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda zamonaviy metodlar va interaktiv o'yinlardan foydalanish samarali natija beradi.

Milliy o'quv dasturidagi amaldagi darsliklar avvalgi darsliklarimizdan tubdan farq qilib, tanlab olingan bo'limlar, mavzular, topshiriqlar, savol va audiomatnlar mazmuni xalqaro talablarga mos darajada ekanligini ifodalaydi. Ta'limning barcha bosqichlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ulardan samarali va oqilona foydalanish hamda yuqori samaradorlikka erishishga alohida ahamiyat berish darkor. Interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarda har tamonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim va ko'nikma, malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish hamda kompetensiyaviy yondashuvni singdirish, o'qituvchi - o'quvchi hamkorligini yo'lga qo'yish va nihoyat kafolatlangan yakuniy natijaga erishishni ta'minlaydi.

Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi [2].

Interfaol metodlar ta'lim sifatini ijobiy o'zgartirish, o'quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil qaror qabul qilish va muammolarni hal etish ko'nikmalari shakllanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi mavzuni o'quvchilarga faqatgina oddiy suhbat usulida gapirib berishi emas, balki o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'zlari o'rganilgan mavzularni amaliyotda qo'llashga undashi muhimdir. Bu jarayonda o'qituvchining vazifasi bolalarni muammolarni mustaqil yechishga undash, ularni faol ishtirok etishga rag'batlantirish va o'quvchilarni bilim olish jarayoniga to'liq jalb qilishdir.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-6

Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning o'quvchi shaxsini shakllantirishda bir qancha ijobiy ta'siri mavjud bo'lib, bular quyidagilar:

- pedagogik faoliyat samaradorligini oshiradi;
- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptiradi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlaydi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi;
- o'quvchilar o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Dars davomida boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishi mumkin bo'lgan interfaol metodlarga misollar, ularning afzalliklari hamda kamchiliklari:

**“Kreativ yozuv” metodi** - O'quvchilarga mavzu asosida ijodiy yozuv topshirig'i beriladi. Masalan, hikoya yoki maktub yozish. Bu metod o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

*Metodni qo'llashning afzalliklari:*

- a) o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.
- b) o'quvchilarning yozish va ifodalash ko'nikmalarini oshiradi.
- c) ularni o'zgacha fikrlashga va o'z fikrlarini erkin bayon qilishga o'rgatadi.

*Kamchiliklari:*

- a) ba'zan o'quvchilar yozuvni qiyin deb topishlari mumkin, bu esa ularning ishtiyoqini pasaytiradi.
- b) o'quvchilarga fikrlarini erkin ifodalash uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi.

**“Loyihaviy ish” metodi** - O'quvchilarga ma'lum bir mavzu bo'yicha loyihalar yaratish va taqdimot qilish topshiriladi. Bu metod o'quvchilarga o'rganilgan mavzuni amaliyotda qo'llash imkonini beradi, ular o'z bilimlarini amalda namoyish qilishadi. Loyihalar guruhlar orasida taqdim etilib, baholanadi.

*Metodni qo'llashning afzalliklari:*

- a) o'quvchilarda axborot izlash, tahlil qilish va jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi.
- b) o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi.
- c) o'qituvchi o'quvchilarning bilimlarini amaliy baholash imkoniga ega bo'ladi.

*Kamchiliklari:*

- a) loyihani tayyorlash vaqt talab qiladi
- b) guruh bo'lib faoliyat olib borilganligi uchun barcha bolalar teng ishtirok etmasligi mumkin.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-6

**“Aqliy hujum” metodi** - bu guruh ishida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini rag‘batlantirishga qaratilgan metod bo‘lib, unda har bir o‘quvchi mavzu yoki muammo bo‘yicha mumkin bo‘lgan barcha fikrlarini erkin tarzda aytadi. Metodni qo‘llashdan asosiy maqsad iloji boricha ko‘p g‘oyalar va yechimlarni yig‘ish, ular tahlil qilinadi va eng yaxshi fikrlar tanlanadi.

*Metodni qo‘llashning afzalliklari:*

- a) ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi, o‘quvchilar o‘zlarining yaratuvchanliklarini namoyon etib, yangi va original g‘oyalar yaratishadi.
- b) o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalashadi, bu esa ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
- c) o‘quvchilar bir-birlari bilan fikr almashib, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

*Kamchiliklari:*

- a) ba‘zi o‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq ifodalashda qiynalishlari mumkin, bu esa natijalarning noaniq bo‘lishiga olib keladi.
- b) aqliy hujum jarayoni ko‘proq vaqtni talab qiladi, shuning uchun uni to‘g‘ri boshqarish muhim.
- c) ba‘zi o‘quvchilar faol ishtirok etmasligi mumkin.

**“Qaynoq kartoshka” metodi** - bu o‘yin shaklida o‘tkaziladigan metod bo‘lib, o‘quvchilarga savol-javoblar orqali mavzuni o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘quvchilar bir-biriga savol berishadi va javoblar o‘zgartiriladi, bu jarayonda "qaynoq kartoshka"ni tez-tez uzatish kerak bo‘ladi. Bu metod, asosan, o‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiladi va qiziqarli tarzda o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

*Metodni qo‘llashning afzalliklari:*

- a) o‘quvchilarni harakatga keltiradi va ularni darsga qiziqtiradi, chunki bu metod o‘yin shaklida amalga oshiriladi.
- b) savol-javob usuli yordamida o‘quvchilar tezda mavzuni o‘zlashtirishadi.
- c) bu metodda o‘quvchilar bir-birlarining savollariga javob berish orqali musobaqada qatnashishadi, bu esa ularning motivatsiyasini oshiradi.

*Kamchiliklari:*

- a) ba‘zi o‘quvchilar o‘zlarini boshqalardan orqada qolganman deb his qilishlari mumkin.
- b) bu metod faqat faollikni talab qiladigan darslarda samarali bo‘ladi, boshqalarida esa o‘quvchilarni ortiqcha stressga solishi mumkin.
- c) agar vaqt noto‘g‘ri taqsimlansa, metod juda qisqa yoki juda uzoq davom etishi mumkin, bu esa darsning samaradorligini pasaytiradi.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-5, ISSUE-6

Yuqorida tahlil qilganimizdek har bir metodning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor, shuning uchun ularni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llash zarur. O'qituvchi har bir metodni tanlashda o'quvchilarning ehtiyojlari va darsning maqsadlariga mos ravishda yondashishi kerak.

Interfaol metodlarni tanlashning navbatdagi mezoni ularning ta'lim mazmuni xususiyatiga mos kelishidir. Metod mazmuni harakatlanish qismi sifatida ham aniqlanadi. Shu boisdan bu mezonning hisobga olinishi shubhasiz. Bir metod yordamida mavzu mazmuni to'laroq ochib berilsa, boshqasi uni ijobiy o'zlashtirishga imkon tug'diradi. Interfaol metodlarning tanlashning yana bir mezoni ularning o'quvchilar o'quv imkoniyatlariga to'liq mos kelishi, ya'ni samarali o'quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart- sharoitlarining birligini ta'minlashdir. Interfaol o'qitish metodlaridan foydalanishda pedagogning xususiy imkoniyatlariga mos kelishi lozim. Bu pedagogning o'qitish metodlari nazariyasi va amaliyoti bilan o'qitish jarayonining qonuniyatlari bilan bilish nazariyalari, ta'lim mazmuni nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasini hisobga oladi. Interfaol metodlarni tanlash mezonlaridan keyingisi-ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir [3].

Interfaol metodlar ta'lim jarayonida hamkorlikni mustahkamlashga ham yordam beradi. Guruh ishlarida o'quvchilar bir-biriga yordam beradi, fikr almashadi, turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqishadi. Bu o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki kommunikativ ko'nikmalarini, muammolarni birgalikda yechish qobiliyatini ham rivojlantiradi. O'quvchilarga o'zaro muloqot, jamoaviy fikrlash va mas'uliyatni taqsimlash ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlar samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, interfaol metodlar o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ijodiy topshiriqlar berish, turli vazifalar va muammolarni qo'yish orqali ular o'z ijodiy salohiyatini namoyon qilishadi. Bu metodlar o'quvchilarni faqatgina aniq javoblar topishga emas, balki o'z fikrlarini ishlab chiqishga, yangi yechimlar taklif qilishga undaydi. Bundan tashqari, zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish interfaol metodlar samaradorligini oshiradi. Internet platformalari, multimedia vositalari, onlayn ta'lim resurslari o'quvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ta'limda interfaol metodlarning samarali qo'llanilishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi. O'qituvchi endi darsni shunchaki ma'lumot yetkazuvchi emas, balki o'quvchilarni o'rganishga undovchi, motivatsiya beruvchi shaxsga aylanishi kerak. O'quvchilar esa faqatgina o'qituvchining gaplarini tinglash bilan cheklanmay, o'zlarini o'rganish jarayonining faol ishtirokchisi sifatida ko'rsatadilar. Bu o'z navbatida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni yangi ma'lumotlarga intilishga undaydi. Interfaol metodlarni joriy etishda e'tibor berilishi lozim bo'lgan yana bir jihat – o'qituvchilarning doimiy professional rivojlanishidir. Pedagogik yondashuvlar, metodlar va texnologiyalarni o'rganish va o'zgartirish jarayoni o'qituvchilarning ishlash samaradorligini oshiradi. O'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish, ularni amaliyotda sinovdan o'tkazish orqali ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish mumkin. Shu bilan birga, interfaol metodlarni samarali qo'llash uchun darslar va darsdan tashqari faoliyatlarni birlashtirib, o'quvchilarga kengroq o'rganish imkoniyatlarini taqdim etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Bugungi kunda interfaol metodlarning ta'lim tizimida qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning bilimini, balki ularning umumiy shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchilarni ijtimoiy muammolarni hal qilishda, milliy va global miqyosda mas'uliyatni o'z zimmasiga olishda tayyorlashda interfaol metodlarning o'rni juda katta. Shu sababli, ta'lim tizimida ushbu metodlarni keng joriy qilish, o'qituvchilarni ularni samarali qo'llashga o'rgatish o'quvchilarni zamonaviy va muvaffaqiyatli shaxslar etib tarbiyalashda asosiy omil bo'ladi. Ular o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ta'lim tizimining eng asosiy maqsadi – zamonaviy, ijodiy va mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashdir, va bunga interfaol metodlarni joriy etish orqali erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://president.uz/oz/lists/view/3864>
2. Amanova A.N. O'zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. "Journal of Natural Science" №2(7) 2022 y.
3. Yo'ldoshev J.G'. Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.: O'qituvchi, 2004 yil.
4. Ulug'bekovna, A. N., & Moxirovna, N. (2022). BOSHLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Results of National Scientific Research International Journal.
5. Ozodova, M. (2021). OSHLANG'ICH SINFLARDA SINTAKTIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISHNING METODIK IMKONIYATLAR. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz).
6. Mamanazarovna, O. O. (2022). O'QUV JARAYONIGA INTENSIV TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH.
7. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzluksiz ta'lim. 2004. 3-son.
8. Abdullaeva H. A., Bikbaeva N.U. va boshq. Boshlang'ich ta'lim konstepstiyasi. Boshlang'ich ta'lim. 1998. 6 –son.
9. Interfaol ta'lim metodlarining psixologik asoslari uslubiy qo'llanma SamDU nashr-2015 A.Saidov